

JIZZAX VILOYATI MUZEYLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI



Jabbarova Latofat Tulkinjanovna

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

“Muzeysunoslik” kafedrası mudiri, s.f.f.d. (PhD)

Bozorova Sojida G‘olib qizi

Muzeysunoslik, tarixiy-madaniy obyektlarni

konservatsiya qilish, ta’irlash va saqlash

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18784855>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jizzax viloyati muzeylarning shakllanish jarayoni, ularning tarixiy rivojlanish bosqichlari Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi, Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi, Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi hamda Zomin tuman tarix muzeylari misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning faoliyati bosqichlarga ajratilgan holda o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: o‘lkashunoslik muzeyi, fond, ekspozitsiya, muzey pedagogikasi, Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi, Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi, Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi, Zomin tuman tarix muzeyi.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс формирования музеев в Джизакской области, этапы их исторического развития на примере Джизакского областного государственного музея истории и культуры, мемориального музея Шарофа Рашидова, музея Хамида Олимджона и Зульфийи и исторических музеев Зоминского района. Также рассматривается их деятельность по этапам.

Ключевые слова: краеведческий музей, фонд, экспозиция, музейная педагогика, Джизакский областной государственный музей истории и культуры, мемориальный музей Шарофа Рашидова, музей Хамида Олимджона и Зульфийи, исторический музей Зоминского района.

Annotation. This article analyzes the process of formation of museums in Jizzakh region, their historical development stages using the examples of Jizzakh regional state museum of history and culture, Sharof Rashidov memorial museum, Hamid Olimjon and Zulfiya museum and Zomin district history museums. Their activities are also studied in stages.

Keywords: local history museum, fund, exposition, museum pedagogy, Jizzakh regional state museum of history and culture, Sharof Rashidov memorial museum, Hamid Olimjon and Zulfiya museum, Zomin district history museum.

Bugungi kunda madaniy merosni asrash va tarixiy xotirani tiklash jarayoni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu jarayon hududiy muzeylar faoliyatida ham o‘z ifodasini topdi. Xususan, Jizzax viloyati muzeylari viloyatning boy tarixiy, arxeologik va etnografik merosini saqlash hamda ilmiy tadqiq etishda muhim institut sifatida

shakllandi. Bu borada 1998-yil 12-yanvarda “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonun¹ning qabul qilinishi muzeyshunoslik sohasining huquqiy asoslarini belgilab berdi va hududiy muzeylarning mustaqil institutsional birlik sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Jizzax viloyati tarixiy jihatdan qadimgi Ustrushona hududining tarkibiy qismi bo‘lib, miloddan avvalgi davrlarga oid arxeologik yodgorliklarga boy mintaqasi hisoblanadi. Qaliyatepa, O‘smattepa, Mingtepa kabi obidalar² hududning sivilizatsion taraqqiyotdagi o‘rnini tasdiqlaydi. Ushbu arxeologik materiallar keyinchalik viloyat o‘lkashunoslik muzeylari fondining asosiy qismini tashkil etdi. Jizzax viloyatida muzeylar faoliyati XX asrning 80-yillarida shakllana boshlagan va hozirgi kunda Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi viloyatdagi barcha muzeylar uchun bosh muvofiqlashtiruvchi muassasa hisoblanadi. Jizzax viloyati muzeylarining shakllanish tarixini 4 asosiy bosqich asosida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

1-bosqich (1950–1970-yillar): Ilk tashabbus va eksponat yig‘ish davri. Bu davrda hududdagi tarixiy buyumlar mahalliy ziyolilar tomonidan yig‘ila boshlandi. Arxeolog A.Asqarov³ Jizzax vohasining qadimiy madaniy qatlamlarini o‘rgandi va ko‘plab topilmalar ilmiy muomalaga kiritildi.

2-bosqich (1970–1991-yillar): Tashkiliy mustahkamlanish. Jizzax viloyati o‘lkashunoslik muzeyi rasmiy muassasa sifatida shakllandi. Fondlar tizimlashtirildi, bo‘limlar tashkil qilindi. Akademik E.Rtveladzening⁴ Markaziy Osiyo sivilizatsiyasiga oid ishlari hudud tarixini umumiy tarixiy jarayonlar bilan bog‘lashga yordam berdi.

3-bosqich (1991–2010-yillar): Milliy konsepsiya asosida yangilanish. Mustaqillikdan so‘ng muzey ekspozitsiyasi milliy davlatchilik va mustaqillik g‘oyasi asosida qayta qurildi. M.Qodirov o‘z ilmiy ishlarida hududiy muzeylarning ijtimoiy funksiyalarini qayta talqin qildi.

4-bosqich (2010-yildan hozirgacha): Modernizatsiya va raqamlashtirish bosqichi. Elektron katalog tizimi joriy etildi. Muzey pedagogikasi yo‘nalishida D.To‘rayevning nazariy qarashlari asosida interaktiv mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yildi⁵.

Jizzax viloyati o‘lkashunoslik muzeyi - O‘zbekistonning Jizzax shahrida joylashgan mintaqaviy muzey sanaladi. U mintaqaning asosiy madaniy va ma‘rifiy markazi bo‘lib xizmat qiladi va mintaqaning boy tarixiy va tabiiy merosini namoyish etadi. Muzey Jizzax viloyatining arxeologiyasi, etnografiyasi va tabiiy tarixini yagona ko‘rgazmada birlashtiradi. Muzey Sovet davrida Jizzax viloyati tarixi va tabiiy tarixini o‘rganish uchun to‘plangan mahalliy kolleksiyalar asosida tashkil etilgan. Vaqt o‘tishi bilan ko‘rgazma sezilarli darajada kengaytirildi va qadimgi Ustrushona arxeologiyasi, etnografiyasi va mintaqasi florasiga bag‘ishlangan bo‘limlar qo‘shildi. Sovet Ittifoqidan keyingi davrda muzey mintaqaning madaniy infratuzilmasining muhim qismiga aylandi, ko‘rgazmalar va ta‘lim tadbirlarini o‘tkazdi. Doimiy ko‘rgazma bir nechta yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- Arxeologiya: Ustrushonaning qadimgi aholi punktlari va qabristonlaridan topilgan topilmalar;

- Etnografiya: mintaqasi xalqlarining uy-ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechaklari va hunarmandchilik buyumlari;

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrdagi “Muzeylar to‘g‘risida” O‘RQ-177-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1391728> (Murojaat sanasi: 01.02.2026)

² Rtveladze E. O‘rta Osiyoning qadimiy shaharlari. – Toshkent, 2008. – B. 58.

³ Asqarov A. O‘zbekiston arxeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 61.

⁴ Rtveladze E. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi. – Toshkent, 2008. – B. 41.

⁵ Акчаев Ф. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. Т.ф.ф.д. (PhD) учун ёзилган дисс. авт - Тошкент, 2020. – Б. 98.

- Tabiat: mineral namunalar, yumshoq hayvonlar, gerbariylar;
- Zamonaviy tarix: XX-XXI asrlarda mintaqadagi hayotni aks ettiruvchi hujjatlar va fotosuratlar.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 1986-yil 10-sentabrdagi №465 sonli qaroriga asosan Jizzax viloyat o‘lkashunoslik muzeyi tashkil topdi⁶. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi №975 sonli qaroriga asosan, Jizzax viloyat o‘lkashunoslik muzeyi tugatilib, “Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi” tashkil topdi⁷. Umumiy eksponatlari soni 13309 ta. Asosiy fondga 5981 ta, yordamchi fondga 7328 ta, ko‘rgazmada 427 ta eksponatlar mavjud⁸. “Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi” san’at, tabiat, tarix bo‘limlari hamda Sharof Rashidov yodgorlik filiali, Hamid Olimjon va Zulfiya filiali, Zomin tuman tarix filiallaridan iborat bo‘lib, bu bo‘lim va filiallarda viloyatning betakror san’ati, tabiati, tarixini yorituvchi eksponatlar namoyish etilmoqda. Shu o‘rinda yuqoridagi muzeylar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Sharof Rashidov memorial muzeyi Jizzax shahrida va mashhur davlat arbobi, yozuvchi va siyosatchi Sharof Rashidovning xotirasiga atab barpo etilgan. Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi 1992-yil 6-noyabrda atoqli davlat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov tug‘ilganligining 75 yillik munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi Jizzax viloyatida tashkil etildi. Uy-muzey joylashgan hudud dastlab SH.Rashidovning ota-onasi Rashid ota va Qulsinoy ona Xalilovaga qarashli bo‘lib, Jizzax shahrining chekka qismida edi. Sharof Rashidovichning turmush o‘rtog‘i Xursana G‘ofurovnaning istagiga ko‘ra, 1979- yilda eski taxtali uy qaytadan obodonlashtirildi. Siyosat arbobining o‘zi bu ta’mirlangan uyda yashashi shart emas edi. Lekin u yerda uning bolaligi va yoshligi o‘tgan, urushga borib, frontdan qaytgan joyi edi. Uy-muzeyni barpo etishdan asosiy maqsad Sharof Rashidovich Rashidovning boy merosini o‘rganishdan iborat. Muzey 5 ta zaldan iborat: asosiy zal, yozuvchi hayoti haqidagi ekspozitsiya. Rashidovga xorijiy davlatlar rahbarlarining hujjatlari va shaxsiy buyumlari, sovg‘alarini taqdim etilgan zal. Xursana G‘ofurovna Rashidova zali - Sharof Rashidovning rafiqasi va oilasiga bag‘ishlangan ekspozitsiya Rashidovning hujjatlari va shaxsiy buyumlarini taqdim etdi. Siyosat arbobining ishxonasi Rashidov ekspozitsiyada Toshkentdagi kvartiradagi (qayta ta’mirlangan) idoradagi buyumlar va kitoblar taqdim etilgan⁹.

O‘zbekiston Madaniyat Vazirligining 1988-yil 30-dekabrdagi qaroriga asosan, Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi tashkil etilgan. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-yanvardagi “Jizzax viloyatini ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi 19-son qarori asosida “Xo‘ja Nuriddin” madrasasida “Ta’mir obida servis” MCHJ tomonidan ta’mirlash ishlari olib borildi. Ta’mirlash ishlari yakunidan so‘ng Hamid Olimjon va Zulfiya filiali madrasaga ko‘chirildi. Bo‘lim faoliyati yanada jonlantirilib Hamid Olimjon va Zulfiya hayoti va ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi-yangi eksponatlar bilan boyitildi. Filialning ko‘rgazma maydoni 200 m.kv.ni tashkil etadi. Umumiy eksponatlar soni - 2315 ta. Shundan, asosiy fondga-1842 ta; yordamchi fondga-473 ta; ko‘rgazmada - 546 ta eksponat mavjuddir¹⁰.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 1986-yil 10-sentabrdagi №465 sonli qarori

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi “2017 - 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” №975 sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3451889> (Murojaat sanasi: 22.02.2026)

⁸ Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi 2022-yil hisoboti. - B. 1-14.

⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharof_Rashidov_uy_muzeyi

¹⁰ Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi 2022-yil hisoboti. - B. 1-14.

Zomin muzeyi “Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi” tizimi tarkibiga tegishli bo‘lib, 1993-yil 12-noyabr sanasida Jizzax viloyati hokimligi qaroriga binoan, tuman tarixini o‘rganish uchun mahalliy faollar tomonidan tashkil etilgan. Muzeyning ilk direktori va ochilishida faollik ko‘rsatgan mahalliy tarixchi, faol Sattor Qoraboyev hisoblanadi. Muzey binosi viloyat madaniy-meros obyektlarini muhofaza qilish inspeksiyasi homiyligida kapital ta‘mirdan chiqarilib, ko‘rgazma zali zamon talabiga mos ravishda jihozlangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda qarorida 2019-2020-yillarda Jizzax viloyat tarix va madaniyati davlat muzeyini rekonstruksiya qilish va 2022-yilda muzeyning filiali Zomin tumani tarixi muzeyini mukammal ta‘mirlash vazifasi belgilandi¹¹. 2020-yilda Vazirlar Mahkamasining Jizzax viloyatining Zomin tumani markazining arxitektura qiyofasini o‘zgartirish, zamonaviy obyektlar va uy-joylar qurish hamda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish chora-tadbirlari doirasida “Qo‘rg‘on” MFY hududida “Zomin tarixi muzeyi” 135 qurilishi Respublika budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi belgilangan edi¹².

Muzeylar faoliyatini jonlantirish dasturi doirasida eksponatlar uchun stellaj va vitrinalar bilan jihozlash, muzlatgich xona-dizenfeksiya uchun mo‘ljallangan maxsus kamera, muzey eksponatlari uchun maxsus chang yutgich, elektron havo namlangich, gilam va matolik eksponatlarni saqlash uchun maxsus javonlar, zargarlik buyumlarini saqlash uchun maxsus seyf, nostandart hajmdagi eksponatlarni saqlash uchun stellaj xarid qilish, kuzatuv kameralarini o‘rnatish, zamonaviy turniketlar o‘rnatish vazifasi yuklatilgan. Muzey nafaqat artefaktlar ombori, balki tadqiqot va ta‘lim markazi sifatida ham xizmat qiladi. U mahalliy merosni o‘rganishni rivojlantirish uchun maktablar, universitetlar va madaniy tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Muzey sayyohlar uchun O‘zbekiston tarixi bilan tanishish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Jizzax viloyati muzeylari hozirda hudud tarixini saqlash, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishda muhim ijtimoiy-madaniy institut hisoblanadi. Ularning shakllanishi arxeologik tadqiqotlar va muzeyshunoslik nazariyasining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Kelgusida hududiy muzeylarni zamonaviy raqamli platformalarga integratsiya qilish, ilmiy kataloglar yaratish va xalqaro tajribani joriy etish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda qarorida “2017 - 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-son qarori. <https://lex.uz/docs/3451889> (Murojaat sanasi: 22.02.2026)
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrda qarorida “2020-2022-yillarda Jizzax viloyatining Zomin tumani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 698-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 1986-yil 10-sentabrda qarorida №-465 sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrda qarorida “Muzeylar to‘g‘risida” O‘RQ-177-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1391728> (Murojaat sanasi: 01.02.2026)
5. Asqarov A. O‘zbekiston arxeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. - 122 b.

¹¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda qarorida “2017- 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-son qarori. <https://lex.uz/docs/3451889> (Murojaat sanasi: 22.02.2026)

¹²O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrda qarorida “2020-2022-yillarda Jizzax viloyatining Zomin tumani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 698-son Qarori.

6. Ақчаев Ф. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгохлари. Т.ф.ф.д. (PhD) учун ёзилган дисс. авт. - Тошкент, 2020.
7. Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi 2022-yil hisoboti. - B. 1-14.